

**ISHLARNI IQTISODIY SUDLAR TOMONIDAN SODDALASHTIRILGAN TARTIBDA KO'RIB CHIQISHNING AHAMIYATI VA FARQLI JIHLTLARI****Mallayev Normamat Ramazonovich**

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

**Dusanov Nodir Sirojiddin o'g'li**

Termiz davlat universiteti Advokatlik faoliyati mutaxassisligi tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19372401>

*Annotsiya.* Iqtisodiy sudlar tomonidan bevosita ko'rib hal etiladigan ishlarining qaysi turlari aynan soddalashtirilgan tartibda nima uchun ko'rilishi hamda hal etilish samaradorligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy sud, da'vogar, javobgar, soddalashtirilgan tartib, shikoyat.

*Annotation.* The article discusses which types of cases considered directly by economic courts are examined under simplified procedures, the reasons for applying such procedures, and their effectiveness in resolving disputes.

**Keywords:** economic court, claimant, defendant, simplified procedure, complaint.

*Аннотация.* В статье рассматриваются виды дел, непосредственно рассматриваемых экономическими судами, которые подлежат рассмотрению в упрощённом порядке, причины применения данного порядка, а также эффективность их разрешения.

**Ключевые слова:** экономический суд, истец, ответчик, упрощённое производство, жалоба.

**Kirish:**

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda sud-huquq tizimidagi islohotlar natijasi o'laroq iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar ko'lami va ularning ko'rib chiqish tartibi ham tubdan yangilanib bormoqda. Shunga ko'ra, iqtisodiy sudlar tomonidan o'z ish yurituvga qabul qilingan ishlarining ko'lami: davo tartibida, buyruq tartibida, alohida tartibda ko'riladigan ishlar, korporativ nizolar bo'yicha ish yuritish, huquqiy ta'sir choralarini qo'llash bilan bo'lgan ishlarni yuritish, hakamlik sudlari hal qiluv qarorlari yuzasidan ishlarni yuritish hamda soddalashtirilgan tartibda ishlarni ko'rib chiqish tartiblari joriy etilgan.

Hozirgi kunga kelib o'z faoliyatini birlashgan holda yoyinki, yuridik shaxslar tashkil etgan holda va oddiy ko'rinishidagi yuridik shaxs tashkil etmasdan olib borayotgan shaxslar o'rtasida iqtisodiy hamda korporat nizolar kundan-kunga oshib bormoqda.

Iqtisodiy sudlar tomonidan ushbu nizoli vaziyatlarni ko'rib chiqishning soddalashtirilgan tartib yuzasidan qonunchilikka muvofiq turli qonun loyihalar mavjud bo'lib ulardan biriga misol tariqasida, 2019 yil 20 martdagi "Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish" to'g'risidagi qonuni loyihalashtirildi.

**Ishlarni soddalashtirilgan tartibda ko'rishlik bu nima ?**

Avvalo soddalashtirilgan tartibda ish yuritish nima ekanligi xususida to'xtaladigan bo'lsak. Qonunchilik normalariga muvofiq soddalashtirilgan tartibda ish yuritish bu sud muhokamasining o'tkazilmasligi hamda sud muhokamasi bosqichida taraflar (davogar hamda javobgar) shaxslar chaqirilmaydigan hamda ular tomonidan keltirilishi mumkin bo'lgan tushuntirishlar va ko'rsatmalar sud bosqichi jarayonida eshitilmaydigan tartib hisoblanadi.

Ushbu ma'lumotlar amaldagi Iqtisodiy Prosetsion Kodeksining yangi kiritilgan 23<sup>1</sup> bobida ko'rsatilib o'tilgan. Unga muvofiq asosiy toifadagi ya'ni soddallashtirilgan tartibdagi ishlar avvalo da'vo miqdori yuridik shaxslar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 20 barobaridan, ya'ni bugungi kunga kelib 6 million 800 ming so'mdan ortiq bo'lmagan va jismoniy shaxslar o'rtasidagi vujudga kelgan nizoning da'vo miqdori 5 barobardan ya'ni 1 million 700 ming so'mdan oshmagan ishlar soddallashtirilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari ushbu qonun normasiga muvofiq boshqa ishlarni ham sudlar taraflarning iltimoslariga muvofiq; davlat sirlariga tegishli yoki qonun normalari bilan qo'riqlanadigan sirlar mavjud bo'lmagan taqdirda, vaziyatlar va holatlarni aniqlash uchun qo'shimcha tarzda ko'zdan kechirish va tekshirish, ekspertizalar tayinlash hamda guvohlarning ko'rsatuvlarini eshitish uchun ko'rsatmalar bo'lmagan taqdirda, ushbu nizolar nizoli vaziyatlarga uchinchi shaxslarning aralashuvi mavjud emasligi hamda agarda ular mavjud bo'lgan taqdirda ham soddallashtirilgan tartibda ish ko'rish ularning manfaatlariga zarar yetkazmaganda soddallashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkinligi keltirib o'tilgan.

Qonunchilikka ko'ra ushbu holatlardan birortasi mavjud bo'lgan taqdirda ham ishlar kodeks keltirilgan tartibda umumiy asoslarga ko'ra ish yuritishning boshqa tartiblarida davom ettirilishi belgilab o'tilgan.

Ishlarni soddallashtirilgan tartibda ko'rib chiqilish xususiyati, ishni sud o'z ish yurituviga qabul qilishi hamda ushbu ishni qo'zg'atish yuzasidan ajrim chiqarishi, ushbu ajrim matnida qabul qilingan ishning soddallashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi va ushbu ish ko'rib chiqilishi rejalashtirilgan vaqt ya'ni sanasi keltirib o'tilishi kabi jarayonlardan iboratligidadir.

Bunda javobgar o'zining yozma shakldagi fikrlarini sudga o'zi asoslangan hujjatlar ya'ni o'zini oqlovchi isbotlarni belgilangan 15 kunlik muddat ichida tegishli hujjatlarga ilova qilib topshirishi belgilangan. Uni o'z imzosi yoki o'z vakilning imzosi bilan qo'shimcha ravishda tasdiqlashi ham talab qilinadi.

Agar ishonchnoma keltirilgan bo'lsa uni yozma fikrga ilova qilish talab qilinadi. Ushbu holat taraflarga ma'lum bo'lgach bu ishni soddallashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishlikka hech qanday g'ov bo'lmaydi.

#### **Ishlarni ko'rish tartibidagi ayrim farqlar:**

Endi agarda biz soddallashtirilgan tartibda ishi yuritishdan da'vo tartibda ish yuritishni farqlaydigan bo'lsak avvalo da'vo arizasiga unga ilova qilinadigan hujjatlarga doir talablarga to'xtalamiz:

Soddallashtirilgan tartibda ishni ko'rib chiqishda davo arizasi hamda unga ilova qilishimiz lozim bo'lgan hujjatlarning jamlanmalari va ularning ko'chirma nusxalari javobgar bo'lgan shaxsga topshirilishi talab etiladi. da'vo tartibida esa unga qo'shimcha ravishda ishda ishtirok etayotgan uchinchi shaxslarga ham yuborishimiz kerak. Ariza yuzasidan yozma fikrdagi farqlariga kelsak soddallashtirilgan tartib da'vo arizasi nusxasi uchinchi shaxslarga yuborilib unga ko'ra 15 kunlik muddati ichida sudga taqdim etilishi talab qilinadi. Da'vo tartibida ish ko'rishda esa Ish suda ko'rilishi kerak bo'lgan kungacha muddatda yetib borishi lozim. Ishni ko'rib chiqilish muddatida ham biroz farqli jihatlari bo'lib unga ko'ra soddallashtirilgan tartibda ko'rish: 20 kunlik muddat ichida tegishli hujjatlar yetkazilgandan so'ng amalga oshiriladi. Da'vo tartibida sud muhokamasiga tayyorlash haqidagi ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran 30 kun ya'ni to'liq bir oylik muddatdan oshmasligi belgilangan. Muddatni uzaytitish dagi farqlari esa soddallashtirilgan tartibda ishni ko'rib chiqishning muddati qonunlar qonun normalariga muvofiq uzaytirilmaydi.

Da'vo tartibida esa ishni ko'rishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar yuzasidan alohida hollar vujudga kelgan taqdirda bir oy etib belgilangan. Ishni ko'rib chiqish tartibidagi o'ziga xos jihatlari soddalashtirilgan tartibda barcha talab va hujjatlarni ko'rib chiqqan holda muhokamasiz ya'ni taraflarning ishtiroksiz o'tkaziladi. Davo tartibida Ish muhokama qilinadi hamda e'tirozlar bo'lmasa videokonferensiya aloqa rejimida ham o'tkazilishi holatlar keltirib o'tilgan. Xalq qiluv qarorining kuchga kirish muddatidagi farqlar soddalashtirilgan tartibda, qabul qilingan kundan boshlanib 10 kunda. Agarda apelatsiya shikoyati bo'lmasa kuchga kiradi. Da'vo tartibida esa

Xuddi shu tartibda ko'rib chiqiladi gan muddat masalasiga keladigan bo'lsak 1 oy etib belgilangan. Ijro masalasida soddalashtirilgan tartibda: Ixtiyoriy va majburiy tartibda (kuchga kirgan va kirguncha bo'lgan paytiga qarab). Da'vo tartibida esa Kuchga kirib bo'lgach.

Bundan tashqari shikoyat va protestlar kiritish muddatlari hamda ularni sudlar tomonidan ko'rib chiqilishligidagi muddatlar borasida ham biroz tafovutlar mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual Kodesida tegishlicha bayon etilgan.

#### **Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, soddalashtirilgan tartibda ishni ko'rib chiqish aynan rivojlanyotgan iqtisodiyot va tezkor texnologiya zamonida insonlar o'z yumushlari va shaxsiy bizneslari bilan band bo'lgan vaqtda ayni muddaodir. Sababi har qanday yuridik shaxslar va tashkilotlar ushbu zamonda ko'proq foyda olish va vaqtini unumli sarflash maqsadida ish yuritadi.

Shunga ko'ra soddalashtirilgan tartibda ish ko'rib chiqishning vaqtlari ya'ni muddatlar borasida: ko'rib chiqilishi, hal qiluv qarorining ko'rib chiqilishdagi muddatlari, ijro masalalarida shikoyat (protest) berish borasida va ularning ko'rib chiqish muddatlari borasidagi qulayliklarini asosiy foydali jihat deb ayta olamiz. Bundan tashqari ishni ko'rib chiqish tartibidagi asosiy foydali jihati shundaki unga agarda istisno hollar mavjud bo'lmagan taqdirda taraflarning chaqirilib o'tirmasdan ya'ni ishni ularning ishtirokisiz ko'rilishidir. Ushbu amaliyot nafaqat biroz konfliktlarning oldini olish uchun balki taraflarda ko'proq o'z ishlarini davom ettirishligi va sarsongarchilik holatlarni bartaraf etishda samarali hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy Protsessual Kodeksi. T.2018
2. "Iqtisodiy Protsessual Huquq" Darslik. T. 2022
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni 674-sonli.T.16.02.2021
4. 2019 yil 20-martdagi "Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimcha kirish to'g'risida"gi qonuni.
5. norma.uz axborot-huquqiy partal